

O'zbekiston Fanlar akademiyasi delegatsiyasi Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasi yubiley sessiyasida ishtirok etdi

Avval xabar qilganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S.Yuldashev ham FA bosh ilmiy kotibi G'.A.Baxadirovlar Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasi prezidenti M.Jurinov taklifiga binoan Qozog'istonda safarda bo'lib turibdilar.

Bugun, 1-iyun kuni O'zbekiston Fanlar akademiyasi delegatsiyasi Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasining 75 yillik yubiley sessiyasida ishtirok etdi.

Mazkur tadbirda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti K.K.Tokayev qatnashdi va Milliy fanlar akademiyasi jamoasini tabrikladi. Fanning insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida alohida to'xtalib o'tdi.



Tantanali tadbir davomida O'zR FA prezidenti B.S.Yuldashevga Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasi oltin medali topshirildi.

